



Xalq so'zi

O'zbekiston —
kelajagi
buyuk
davlat

2024-YIL — YOSHLAR VA BIZNESNI QO'LLAB-QUVVATLASH YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqa boshlagan

WWW.XS.UZ

E-mail: Info@xs.uz

2024-yil 27-mart, № 62 (8685)

Chorshanba

Saytimizga o'tish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



HAR BIR KORXONA, TADBIRKOR VA XONADON BILAN YAQINDAN ISHLAYDIGAN TIZIM YO'LGA QO'YILADI

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 25-26-mart kunlari Namangan viloyatida bo'ldi.



Davlatimiz rahbari tashrifining ikkinchi kuni Namangan viloyatini iqtisodiy-ijtimoiy rivojlantirish chora-tadbirlari muhokamasi yuzasidan yig'ilish bo'lib o'tdi.

Odamlarning mehnati va tadbirkorligi bilan Namanganda hayot o'zgarayotgani qayd etildi. Oxirgi yetti yilda viloyat iqtisodiyoti 2 barobar, eksport 3 karra o'sib, aholi jon boshiga daromad 15,5 million so'mga yetgan. 65 trillion so'm investitsiya hisobiga 600 ming ish o'ri yaratilgan.

Lekin hali ko'p imkoniyatlar ishga solinmagan, joylarda kamchiliklar ham bor. Masalan, viloyat eksportining 86 foizi to'qimachilik va meva-sabzavotchilik hissasiga to'g'ri keladi. Pop, Chortoq, Norin va Yangiqo'rg'on sanoatlashish darajasi past. Viloyatda 56 ming tomorqada mahsulot yetishtirilmayapti.

Tanqidiy ruhda o'tgan yig'ilishda shu kabi muammolar tahlil qilinib, imkoniyatlarni to'liq ishga solish bo'yicha vazifalar belgilandi.

Davlatimiz rahbari eng asosiy masala aholi bandligini ta'minlash va daromadni oshirish ekanini ta'kidladi.

Sayxunobod tajribasi asosida Namanganda ham katta harakat boshlangan. Viloyatning 14 ta tumanidagi 788 ta mahallaga bank filiallari birkirtilgan. Ular "mahalla yetiligi" bilan birga xonadonlardagi imkoniyatlarni, oilaning xohish-istaklarini o'rganmoqda.

Birinchi bosqichda kam daromadli 4 mingta xonadon tanlab olinib, oila a'zolari jon boshiga oylik daromadni 2 million so'mgacha oshirish choralarini ko'radi. Keyingi bosqichda yana 4 mingtasiga moliyaviy, texnik, maslahat va boshqa ko'rinishdagi amaliy yordam beriladi. Mahallalarda gulchilik, baliqchilik, asalarichilik, chorvachilik, uzumchilik, qulupnay va kartoshka

yetishtirish imkoniyati, ayniqsa, yaxshi. Bunga imtiyozli kreditlar ajratiladi.

— Bu ishlarni kim qilishi kerak? Prezident vakili bo'lgan hokimlar, sektor rahbarlari, 5 mingdan ortiq iqtisodiy idora xodimlari, mahalladagi "yetitlik" qilishi lozim. Buning uchun barcha mas'ullar har bir korxonaga, tadbirkor va xonadon bilan yaqindan ishlaydigan tizimni yo'lga qo'yishi kerak, — dedi davlatimiz rahbari.

So'nggi yillarda to'qimachilikda xomashyoni to'liq qayta ishlash yo'lga qo'yilib, eksport hajmi 1 milliarddan 4 milliard dollarga ko'paydi. Xuddi shunday, zargarlikda ham salohiyat hoziridan ancha yuqori. Yurtimizda yiliga 100 tonna oltin qazib olinmoqda. Lekin uning atigi 6 foizi qayta ishlanib, bor-yo'g'i 78 million dollar eksport bo'lgan.

Shu bois tadbirkorlar uchun alohida sharoitlarga ega zargarlik zonalarini tashkil qilinishi aytiladi. Sohaga xomashyo yetkazish, mutaxassis tayyorlash, ishlab chiqarish zanjiri va sotish tizimi butunlay qayta ko'rib chiqiladi. Bu borada qonunchilikka ham takliflar kiritiladi.

To'la foydalanilmayotgan imkoniyatlardan yana biri yo'llar va turizmdir. Angren shahridan to To'raqo'rg'on gacha 100 kilometr yuriladi, avtomobil oqimi kuniga 10 mingdan oshadi. Tadbirkorlar bu yo'l bo'yida oshxonalar, savdo va xizmat ko'rsatish shoxobchalarini ko'paytirib, 10 ming aholini doimiy band qilishga tayyor. Buni tartibli tashkil qilish uchun master-reja ishlab chiqib, yerlarni auksionga chiqarish vazifasi qo'yildi.

Namangan viloyatining tog'li va xushmanzara hududlarida turizmni rivojlantirish, sayyohlarga qulaylik yaratish uchun avia va temir yo'l qatnovlarini ko'paytirish zarurligi aytiladi.

Viloyatda sanoat salohiyati ham yuqori.

So'nggi yillarda 72 ta kichik va yoshlar sanoat zonasida ishga tushdi.

Lekin 16 ta sanoat zonasida 78 gektarda qo'shimcha loyiha joylashtirish imkoniyati bor. 29 ta noruda koniga sanoat kirib bormagan. Viloyatning qo'shni davlatlarga eksporti 568 million dollar. Bu bor imkoniyatga mutlaqo to'g'ri kelmaydi.

Shu bois konlarni savdoga chiqarish, qo'shimcha bojxona postlari va savdo uylari ochish, Namangan xalqaro aeroportida yuk terminali va Qamchiq dovoniga yaqin joyda logistika markazi tashkil etish choralarini belgilandi. To'qimachilik, charm-poyabzal, zargarlik, elektr texnikasi, qurilish materiallari tarmoqlaridagi loyihalar bo'yicha ko'rsatmalar berildi.

Kuni kecha Norin daryosida GESlar kaskadi, Pop tumanida ming megavattli 2 ta quyosh elektr stansiyasi qurilishi boshlandi. Kelgusi yilda Katta Andijon kanalida 51 megavattli kichik GESlar kaskadi ham ishga tushirilishi rejalashtirilgan. Buni davom ettirib, gidroenergetikani har bir soy, har bir mahallaga olib kiradigan tizim qilish muhimligi qayd etildi.

Qishloq xo'jaligidagi masalalar muhokama qilinadi, kanallarni betonlash, suv tejovchi texnologiyalarni joriy qilish ishlari mutlaqo qoniqsiz ekan ko'rsatib o'tildi.

Uchqo'rg'on, Pop, Uychi va Mingbuloqda Sloveniya tajribasi asosida intensiv baliqchilik yo'lga qo'yilishi, bu tarmoqda 4 ta yirik loyiha ishga tushirilishi aytiladi.

Namanganda 1,5 million tonna meva-sabzavotdan 10 foizi eksport qilingan. Agar ish to'g'ri tashkil qilinsa, eksportini 3 — 5 barobar oshirish mumkin. Shu maqsadda viloyat meva-sabzavot eksporti geografiyasi Xitoy, Germaniya, Italiya, Ispaniya va

Arab davlatlariga kengaytiriladi. 54 ming gektar yerning agrokimyoviy xaritasi ishlab chiqilib, 18 ming gektari "GSP+" talablariga moslashtiriladi.

Viloyatda meva-sabzavot, go'sht va sutni qayta ishlash darajasi ham kam. Masalan, Kosonsoy va Chortoq meva-sabzavotchilikka ixtisoslashtirilgan bo'lsa-da, birorta qayta ishlash korxonasi yo'q.

Shu bois bu yo'nalishda 141 million dollarlik 62 ta loyiha ishga tushiriladi. Kosonsoy va Popda yirik chorvachilik klasterlari tashkil etiladi.

Shahar va mahallalar infratuzilmasini yaxshilash vazifalari ham juda muhim. Bugungi kunda 200 ming aholi uchun Yangi Namangan shahri qurilmoqda. Endi Chust va Pop tumanida 10 ming aholi uchun "Yangi O'zbekiston" massivlari, yana 20 ming xonadonli turarjoylar, IT-park va bog' barpo etiladi.

Tumanlarda ichimlik suvi ta'minotini yaxshilash, yo'llar qurish va ta'mirlash vazifalari belgilandi.

Viloyatdagi 16 ta ixtisoslashtirilgan tibbiyot markazi negizida ikkita — birinchi va ikkinchi Namangan tibbiyot markazlari tashkil etiladi. Bunda shoshilinch va boshqa tibbiy xizmatlar, diagnostik tekshiruvlar hamda tor soha mutaxassislarini bir joyga jamlash, aholiga tun-u kun xizmat ko'rsatish imkoniyati yaratiladi.

Oliy o'quv yurtlarida ta'lim sifatini oshirish, yoshlar va xotin-qizlar bandligini ta'minlash vazifalariga ham to'xtalib o'tildi.

Yig'ilishda muhokama qilingan masalalar yuzasidan viloyat va tuman hokimlari, vazirlar axborot berdi. Videoaloqa orqali tumanlar jamoatchiligi bilan samimiy muloqot bo'ldi.

Davlatimiz rahbari tashabbusi bilan 2017-yilda To'raqo'rg'on tumanida Is'hoqxon

Ibrat nomidagi ijod maktabi, bog' va muzey barpo etilgan edi.

Shavkat Mirziyoyev 2021-yilda namanganlik saylovchilar bilan uchrashuvda jaded bobomiz nomida chet tillari oliygohi tashkil qilish maqsadini aytgandi. Bu hayotga ko'chib, 2022-yilda To'raqo'rg'on tumanida shunday institut tashkil topdi.

Institutda jahon tillari fakulteti, 6 ta kafedra va 16 ta ta'lim yo'nalishi bor. Hozirda ikki bosqichda 1 ming 523 nafar talaba saboq o'lmoqda. Kelgusi yillarda ularning soni yana ortadi.

Shuning uchun Yangi Namangan hududida 5 gektar joyda oliygoh uchun yangi kampus qurilmoqda.

Prezidentimiz ushbu bunyodkorlik ishlarini ko'zdan kechirdi.

Hozirda ming o'rinni o'quv binosi, sport zali, oshxona qad rostlagan. Ularni shu yil avgustda foydalanishga topshirish rejalashtirilgan. Keyingi bosqichlarda talabalar yotoqxonasi va yana bir o'quv binosi barpo qilinishi ko'zda tutilgan.

Prezidentimiz shu yerda Yangi Namangan shahri bosqichlari bo'yicha taqdimot bilan tanishdi.

Uning qurilishi ikki yil oldin boshlangan edi. Bugungi kunda 2 ming 764 ta xonadonli ko'p qavatli uy-joylar barpo etilgan, yana 648 ta xonadonli uylar qurilmoqda.

Bu shahar 200 ming aholiga mo'ljallangan. Unda bog'cha, maktab va boshqa ijtimoiy muassasalar, ish o'rinlari uchun sanoat zonasida bo'ldi. "Yangi O'zbekiston bog'i" ham shu yerda barpo etiladi.

Davlatimiz rahbari bu qulaylik, xavfsizlik, sifatli ekspluatatsiyani mujassam etgan "aqli" shahar bo'lishi kerakligini ta'kidladi. Shu bois loyihani yana bir bor sinchiklab

ko'rib chiqish, sifat nazoratini kuchaytirish bo'yicha ko'rsatmalar berildi.

Shundan so'ng Prezident Shavkat Mirziyoyev Namangan xalqaro aeroportini modernizatsiya qilish loyihasi bilan tanishdi.

Farg'ona vodiysidan mamlakatimiz vohalariga dovon orqali o'tiladi. Poyezd qatnovlari hamma yo'nalishlarda ham emas. Shu bois mazkur aeroport infratuzilmasini yangilashni hayotning o'zi taqozo qilmoqda. Bu tadbirkorlik, transport xizmatlari va turizm rivojiga katta turki beradi.

Loyiha doirasida yuk terminali, keytering, yonilg'i quyish majmuasi va boshqa xo'jalik binolari qurilishi rejalashtirilgan. Shuningdek, aeroportning yo'lovchi terminali quvvati soatiga 1 ming nafarga yetkaziladi. Yuk terminali tadbirkorlik, eksport va tranzit salohiyatini oshiradi.

Shu bilan birga, maxsus servis texnikalari parki yangilanadi. Bu istalgan turdagi samolyotlarni qabul qilish va ularga xizmat ko'rsatish imkonini yaratadi.

Davlatimiz rahbari aeroportning samaradorligini oshirish bo'yicha ko'rsatmalar berdi. Mahalliy va xalqaro reyslarni ko'paytirish, logistika imkoniyatlaridan to'la foydalanish zarurligini ta'kidladi. Chiptalar narxini aholiga qulay qilish asosiy vazifa etib qo'yildi.

Shu bilan Prezident Shavkat Mirziyoyevning Namangan viloyatiga tashrifi yakunlandi.

Ziyodulla JONIBEKOV,
Ikrom AVVALBOYEV,
O'ZA muxbirlari.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Matbuot xizmati suratlari.

IQLIM O'ZGARISHLARIGA QARSHI KURASHDA PARLAMENTLARARO HAMKORLIK

Oliy Majlis Senati Raisi Tanzila Norboyeva boshchiligidagi O'zbekiston delegatsiyasi Jeneva shahrida Qo'shilmaslik harakati parlament tarmog'ining "Iqlim o'zgarishiga qarshi kurashishda parlament faoliyatini kuchaytirish" mavzuidagi uchinchi konferensiyasida ishtirok etdi.

Konferensiya

Tashkilotda ishtirok etuvchi parlamentlar va xalqaro tuzilmalardan 53 ta delegatsiya qatnashgan anjuman davomida iqlim o'zgarishiga qarshi kurashishda parlamentlar rolini kuchaytirishga qaratilgan qator strategiya va yondashuvlar muhokama qilindi.

Shu bilan birga, iqlim o'zgarishi jamoaviy harakatlarni talab qiladigan zamonamizning global muammolaridan biri bo'lib qolayotgani, bugun qabul qilinadigan qarorlar kelajak avlodlarga uzoq muddat ta'sir ko'rsatishi aytib o'tildi.

"Issiqxona gazlari" chiqindilarini kamaytirish, aholining xabardorlik darajasini oshirish, barqaror ekologik siyosat sohasida xalqaro hamkorlikni rivojlantirishga qaratilgan namunaviy qonunlarni ishlab chiqish bo'yicha parlamentlar sa'y-harakatlarini birlashtirish lozimligiga ham alohida e'tibor qaratildi.

Oliy Majlis Senati Raisi o'z nutqida jahon mamlakatlari parlamentlari, birinchi navbatda, inson omilining sayyoramizga salbiy ta'sirini imkon qadar kamaytirish bo'yicha shoshilinch

choralar ko'rish uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga olishi zarurligini ta'kidladi.

Ayni chog'da ekologik muammolarni hal qilishda parlamentlardan talab etiladigan zarur jihatlarni sanab o'tildi. Ekologiya va iqlim o'zgarishi sohasiga doir qonun hujjatlarini uyg'unlashtirish bo'yicha mamlakatlarni parlamentlari o'rtasidagi hamkorlikni mustahkamlash, global o'rtacha harorat o'sishini Selsiy bo'yicha 2 darajadan past ko'rsatkichda ushlab turishga erishish va Parij bitimini amalga oshirishni qo'llab-quvvatlash shular jumlasidandir.

O'z navbatida, Senat Raisi "yashil" texnologiyalar va tegishli infratuzilmaga investitsiyalar kiritish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish zarurligiga ishtirokchilar e'tiborini qaratdi.

Konferensiyada Qo'shilmaslik harakati parlament tarmog'i byurosi va doimiy komissiyalarini shakllantirish, shuningdek, xalqaro tashkilotlarga QHPT huzurida kuzatuvchi maqomi berish to'g'risidagi tashkiliy masalalar ko'rib chiqildi va qarorlar qabul qilindi.

Tadbir yakunida uning natijalarini sarhisob qilgan holda Jeneva deklaratsiyasi qabul qilindi. "Xalq so'zi".

ILG'OR TAJRIBA VA ISTIQBOLLI LOYIHALAR HUDUD TARAQQIYOTIGA XIZMAT QILMOQDA



Aks sado

Inson manfaatlari yo'lidagi bunyodkorlik ishlari, xalqimiz turmush farovonligini ko'zlab amalga oshirilayotgan islohotlar zahirida jamiyat taraqqiyotini, shuningdek, odamlarning o'z hayoti va mehnatidan rozi-rizoligini ta'minlashdek ezgu maqsad mujassam.

Maqsadlar ro'yobiga shiddatli zamon bilan hamqadamlik, xususan, yurtdoshlarimizning faolligi, hayotni o'zgartirishga yo'naltirilgan qimmatli tashabbuslar, istiqbolli g'oya hamda

ishlanmalarni dadillik bilan amalga oshirish orqali erishiladi.

Bu Prezidentimizning Namangan viloyatiga navbatdagi tashrifi davomida hududni yanada rivojlantirishga yo'naltirilgan istiqbolli loyihalar bilan tanishuvi chog'ida ham yaqqol namoyon bo'ldi.

O'zaro muloqotlarda bildirilgan ochiq va samimiy fikrlar yuraklarga cho'g' tashladi, namanganliklarning har birini yangi-yangi marralar va g'oyalari sari ilhomlantirdi.

Muxbirimiz muloqot ishtirokchilarining fikr-mulohazalari bilan qiziqdi. [3-sahifaga qarang.](#)

Hesron PAYDOYEV olgan suratlari.

Muloqot

SENAT RAISI XORIJLIK HAMKASBLARI BILAN UCHRASHDI

Oliy Majlis Senati Raisi Tanzila Norboyeva Parlamentlararo Ittifoq (PI)ning 148-assambleyasi doirasida Ozarbayon Milliy Majlisi Raisi Sohiba Gafarova, Qozg'iston Respublikasi parlamenti Majlisi Raisi Yerlan Koshanov, Armaniston Milliy Assambleyasi Raisi Alen Simonyan hamda Rossiya Federatsiyasi Federal Majlisi Federatsiya Kengashi Raisining birinchi o'rinbosari Konstantin Kosachev bilan ikki tomonlama uchrashuvlar o'tkazdi.

"Xalq so'zi".

SUV XO'JALIGI VAZIRIGA SENATOR SO'ROVI YUBORILDI

Bugungi kunda mintaqamizda yuzaga kelgan suv tanqisligi qilibatida o'rnatilgan har xil turdagi suv tejoychi texnologiyalar yer maydoniga mos kelmasligi va samaradorligi past ekanini keltirib o'tilgan.

Parlament nazorati

Bu borada Oliy Majlis Senati tomonidan ham salmoqli ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, hududlarimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha qabul qilingan dasturlar ijrosi doirasida qishloq xo'jaligida suv ta'minoti va sudvan samarali foydalanish bo'yicha belgilangan vazifalarning ijrosiga alohida e'tibor qaratib kelinayotir.

Joriy yil fevral oyida Jizzax viloyatida o'tkazilgan o'rganish va tahlillar jarayonida O'zbekiston Respublikasi suv xo'jaligini rivojlantirishning 2020 — 2030-yillarga mo'ljallangan konsepsiyasida belgilangan vazifalar ijrosi bo'yicha salmoqli ishlar qilingani ma'lum bo'ldi. Ayni chog'da sudvan samarali

foydalanish, shu jumladan, suv tejoychi texnologiyalarni joriy qilib bo'yicha belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlashda hal etilishi lozim bo'lgan ayrim muammolar mavjudligi ham aniqlandi.

Shulardan kelib chiqib, Oliy Majlis Senatining Agrar va suv xo'jaligi masalalari qo'mitasi raisining o'rinbosari Risqul Siddiqov Suv xo'jaligi vaziriga senator so'rovi yubordi.

So'rovda qishloq xo'jaligi ekinlarini sug'orishda 35 yil avvalgi gidromodul rayonlashtirish normalari qo'llanilayotgani, ayrim holatlarda suv tejoychi texnologiyalarni joriy etishda hududning tuproq va iqlim

sharoiti chuqur o'rganilmaganligi qilibatida o'rnatilgan har xil turdagi suv tejoychi texnologiyalar yer maydoniga mos kelmasligi va samaradorligi past ekanini keltirib o'tilgan.

Qolaversa, unda qayd etilishicha, suv tejoychi texnologiyalarni o'rnatish uchun kredit mablag'larini ajratish shartlari murakkab, ularni bajarish uchun ayrim fermer xo'jaliklarining bugungi iqtisodiy holati talabga javob bermaydi. Hududlarda zamonaviy texnologiyalardan samarali foydalanish bo'yicha fermerlar va mutaxassislarining malakasi yetarli emas.

Shuningdek, Prezidentimizning 2020-yil 11-avgustdagi qarori bilan tasdiqlangan manzilli ro'yxatga muvofiq viloyatda 2021 — 2023-yillarda 14 ta irrigatsiya obyekti qurish va rekonstruksiya qilish uchun ko'zda tutilgan mablag' o'z vaqtida yo'naltirilganligi sababli tabdirlar ijrosi kechikmoqda.

"Xalq so'zi".

ONA TABIATNI ASRAB-AVAYLASH — MUQADDAS BURCH

Yangilanish va yasharish, mehr-muruvvat va ezgulik ayyomi — Navro'z yurtimizning barcha hududida ko'tarinkilik bilan keng nishonlandi. Istirohat bog'larida, dala-yu qirlarda sayillar tashkil etildi, bahoriy taomlar tayyorlanib, yoshi ulug' insonlar holidan xabar olindi.

Munosabat

Davlatimiz rahbari Navro'z umumxalq bayramiga bag'ishlangan tantanalari marosimida nutqida xalqimizni sharqona yangi yil bilan samimiy muborakbod etish bilan bir qatorda "Yangi hayot uchun, Yangi O'zbekiston uchun!" degan ezgu g'oya atrofida birlashgan oliyjanob xalqimizning mehnati bilan mamlakatimizda barpo qilinayotgan obyektlar, amalga oshirilayotgan islohotlarga to'xtalib o'tdi. Shu bilan birga, Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash yilida e'tibor qaratilishi lozim bo'lgan ustuvor vazifalar ham alohida qayd etildi.

Yurtboshimiz atrof-muhit, ekologiya masalalariga to'xtalib, "Navro'zi olam bizni butun borliqni, avvalambor, yer va suv, hayvonot va o'simlik dunyosini, sof havoni asrab-avaylab, ona tabiatga mehribon farzand bo'lib yashashga da'vat etadi. Ana shunday ezgu chorlovgu javoban bugungi kunda yurtimizda ulkan ishlar amalga oshirilmoqda, Navro'z hasharlari o'tkazilmoqda. Jumladan, "Yashil makon" loyihasi doirasida millionlab mevali va manzarali ko'chatlar ekilmoqda, yangi bog'lar ro'g'lar barpo etilmoqda", deya urg'u berdi.

Shu o'rinda Prezidentimiz an'analarga sodiq qolgan holda shaxsiy namuna sifatida keng jamoatchilik vakillari bilan birgalikda Toshkent shahridan Sergeli tumanida tashkil etilayotgan "Yoshlar bog'i"da daraxt ekish tabrida qatnashganini alohida qayd etish lozim.

"Hamamiz bugun ulug' ayyom Ramazon oyida, Navro'z bayrami arafasida hayotimizni, ertangi kunimizni o'ylab daraxt ekyapimiz. Bu daraxtlarni yaxshi niyatlar bilan farzandlarimizga, nabiralarimizga mulk bo'lib qolishi uchun ekamiz", dedi davlatimiz rahbari tabdir ishtirokchilariga.

Darhaqiqat, bugungi global iqlim o'zgarishlari sharoitida azaliy an'analarni va qadriyatlarimiz asosida yashilikni ko'paytirish, daraxt va buta ko'chatlarini ekish orqaligina musaffo tabiatni kelajak avlodga yetkazishimiz mumkin.

Binobarin, "O'zbekiston — 2030"

strategiyasida ham "Yashil makon" umummilliy loyihasi doirasida kamida 200 million tup manzarali va mevali daraxt hamda butalar ko'chatini, qalamchalarini ekish va respublikada 444 ta yashil bog' barpo etish belgilangan bejiz emas. Zero, yashil olam musaffo tabiatning asosiy ilididir. Ko'kka bo'y cho'zib turgan salobati dov-daraxtlar, ko'kalimzor joylar ko'zni yashnatishi barobarida, havo musaffoligini ham ta'minlaydi. Tabiiy drenaj hisoblangan ko'p yillik daraxtlarning ekilishi hududdagi mikroiklimni yumshatadi. Ko'kalimzorlashtirilgan hududlarni, ayniqsa, shahar va avtomobil yo'llari chetida yashil hududlarni kengaytirish atmosferaga tashlanayotgan ifloslantiruvchi moddalar miqdorini kamaytiradi. Borliqning yashilikka burkanishi aholi salomatligini saqlashning asosiy omillaridan biri. Shuningdek, yashilik darajasini oshirish ekologik barqarorlikni ta'minlashga xizmat qiladi, global iqlim o'zgarishlarining oldini olishdagi milliy yechim hisoblanishi bilan ahamiyatlidir.

Shunday ekan, milliy qadriyatlarimiz va an'analarni qadrlash sadoqlik timsoli sifatida mamlakatimiz hududini bog'-u bo'stonga aylantirishga yo'naltirilgan "Yashil makon" umummilliy loyihasi doirasida daraxt ekish tabrida faol ishtirok etishimiz maqsadga muvofiq. Va shu orqali Yangi O'zbekistonning "yashil" taraqqiyoti uchun hissa qo'shgan bo'lamiz.

Muxtasar aytganda, ushbu ezgu maqsadlarning amalga oshirilishi mahallalarimizga fayz bag'ishlovchi yashilikka burkanagan yangi bog'-rog'lar barpo etilishiga, hududlar iqlimini mo'tadil saqlashga, tabiatni asrashga, aholi salomatligini yaxshilashga, xalqimiz farovonligini kafolatlashga xizmat qilishi bilan bir qatorda fuqarolarning Konstitutsiyada belgilab qo'yilgan qulay atrof-muhitga bo'lgan huquqini ta'minlaydi.

Xayrullo G'AFFOROV, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi Spikeri o'rinbosari, O'zbekiston Ekologik partiyasi fraksiyasi rahbari.

ISTE'MOLCHILAR HUQUQLARI HIMOYASINI KUCHAYTIRISH ZARUR

Mamlakatimizda olib borilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar doirasida iste'molchilar huquqlarini himoya qilish masalasi ham alohida o'rin tutadi. Shu maqsadda o'tgan davrda salmoqli ishlar ro'yobga chiqarildi. Eng avvalo, sohaning huquqiy asosi yaratilgani hamda zamonga mos ravishda takomillashtirib borilayotganligini ta'kidlash zarur.

Mulohaza

Xususan, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi hamda Fuqarolik kodeksi, "Raqobat to'g'risida" gi va "Iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida" gi qonunlar bilan aholining iste'molchi sifatidagi huquq va qonuniy manfaatlarini himoya etilishi kafolatlangan.

Ana shu huquqiy asos iste'molchilar huquqlarini himoyalashda muhim ahamiyatga ega. Buni iste'molchilarning huquqlari himoyasi uchun maxsus vakolatli organ hisoblangan Raqobatni rivojlantirish va iste'molchilar huquqlarini himoya qilish qo'mitasi tomonidan 2023-yilda

amalga oshirilgan tizimli ishlar misolida ham ko'rish mumkin.

O'tgan yili mazkur qo'mita va uning hududiy boshqarmalariga jami 20691 ta murojaat kelib tushgan. Ularning aksariyati uyojy kommunal hamda transport, savdo va umumiy ovqatlanish hamda aloqa, moliya va ijtimoiy xizmatlar hamda reklama munosabatiga taalluqli bo'lib, ularning 86,3 foizi ijobiy hal etilgan.

Shu jarayonda o'tkazilgan o'rganishlarda 18 ming 868 nafar iste'molchi huquqi buzilgan aniqlangan va ular foydasiga 20,68 mlrd. so'm miqdoridagi mablag' qayta hisob-kitob qilinishi ta'minlangan.

Ayni chog'da tovarlar (ishlar, xizmatlar) xavfsizligi va ular

sifatini nazorat qilish maqsadida tasdiqlangan reja-jadval asosida muntazam ravishda chakana savdoda tovarlar nazorat xaridini va ularni ekspertizadan o'tkazish ishlari yo'lga qo'yilgan. Masalan, o'tgan yilda jami 397 nomdagi mahsulot nazorat xaridi amalga oshirilib, ularni ekspertizadan o'tkazish natijasiga ko'ra 26 nomdagi mahsulot normativ-texnik hujjatlar talabiga javob bermasligi aniqlangan.

Raqobatni rivojlantirish va iste'molchilar huquqlarini himoya qilish qo'mitasi hamda uning hududiy boshqarmalari tomonidan reklamalarning joylashtirilishi va tarqatilishi yuzasidan ham o'rganishlar olib borilgan. E'tiborlisi, ushbu jarayonda teleradio, tashqi reklama vositalari, bosma nashrlar, internet va ijtimoiy tarmoqlar to'liq qamrab olindi.

Natijada 27 947 ta holatda turli kamchiliklar aniqlanib, ularni bartaraf etish choralari ko'ridi.

Bundan tashqari, reklamalarda davlat va jamoat manfaatlariga, axloq va ma'naviyatning umume'tirof etilgan me'yorlariga rioya qilinishi, madaniy meros obyektlarining reklamadan xoliligi, peshlava, e'lon va boshqa axborot matnlarining davlat tili qoidalariga mosligi bo'yicha o'rganishlar uyushtirildi.

Reklama beruvchilar tomonidan taqdim etilgan reklama eskizlarini amaldagi qonun hujjatlar talabiga muvofiq bo'yicha 364 ta ekspertiza va tahlil o'tkazilib, 43 tasi bo'yicha reklama to'g'risidagi qonunchilik talablariga nomuvofiqi haqida xulosalar berilgan.

Shuningdek, aholi turmush tarzida oldi-sotdi shartnomasiga muvofiq mahsulot yetkazib berish (avtomobil, buyurtma berilgan oziq-ovqat, maishiy texnika va mebel mahsulotlari) majburiyatlarini lozim darajada bajarmaslik holatlari uchrab turganligini ham esdan chiqarmaslik kerak. Shu va boshqa holatlar mazkur yo'nalishtirish qonunchiligini takomillashtirishni talab etmoqda, desak, ayni haqiqat.

Aniq aytadigan bo'lsak, iste'molchilar huquqlarini himoya qilishning samarali mexanizmlarini takomillashtirish maqsadida tovarlarni yetkazib berish to'g'risidagi shartnoma shartlari buzilgan taqdirda iste'molchilar huquqlarini ta'minlashga doir qonun hujjatlariga tegishli qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish maqsadga muvofiq. Shu jumladan, "Iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida" gi Qonunga oldi-sotdi huquqlarini himoya qilishga qaratilgan yangiliklar kiritilsa, nur ustiga a'lo nur bo'lar edi.

Nafaqat qonun ijodkorlari, ayni chog'da biz, senatorlardan ham katta mas'uliyat talab etadi. Zero, qonunchilik asoslarini mustahkamlamay turib, iste'molchilarning huquqlarini to'liq kafolatlash mumkin emas.

Erkin GADOYEV, Oliy Majlis Senatining Budget va iqtisodiy islohotlar masalalari qo'mitasi raisi.

Oliy Majlis Qonunchilik palatasida

EZGU MAQSADLAR RO'YOBI VA AHOLI MANFAATLARI KAFOLATI

Oliy Majlis Qonunchilik palatasining navbatdagi majlisi bo'lib o'tdi. Unda o'tgan haftada yurtimizda Navro'z umumxalq bayrami keng nishonlangani, Prezidentimiz ushbu bayramga bag'ishlangan tantanalari marosimida nutqida "Yangi hayot uchun, Yangi O'zbekiston uchun!" degan ezgu g'oya atrofida birlashgan xalqimizning oliyjanob mehnati bilan mamlakatimizda amalga oshirilayotgan bunyodkorlik ishlari to'g'risida alohida to'xtalib o'tgani qayd etildi. Mamlakatimizdagi do'stlik va hamjihatlik muhiti, yaxshi qo'shniçilik, tinchliksevar tashqi siyosat tufayli xalqaro maydonda O'zbekistonning obro'-e'tibori yuksalib borayotgani, shuningdek, dunyodagi vaziyat tobora murakkab va tahlilali tus olayotgan hozirgi kunda Navro'z madaniy merosining Yer yuzida turli xalqlar va millatlar o'rtasida tinchlik va hamkorlikni mustahkamlashdek ezgu maqsadga xizmat qilayotgani e'tirof etilgani ta'kidlandi.

Shundan so'ng, majlisda kun tartibiga kiritilgan ijtimoiy-siyosiy hayotiga oid bir qator qonun loyihalari atroflicha ko'rib chiqildi.

Qizil kitobga kiritilgan kamyob turlar saqlab qolinadi

Deputatlar Qizil kitobga kiritilgan kamyob va yo'qolib ketish xavfi ostida turgan o'simlik va hayvonot turlarini muhofaza qilishni yanada kuchaytirishga qaratilgan qonun loyihasini ikkinchi o'qishda muhokama qilindi.

Keyingi yillarda mamlakatimizda atrof-muhit himoyasi, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, hayvonot va o'simlik dunyosini muhofaza qilishga doir bir qator normalar o'z aksini topdi.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda ekologik masalalar, xususan, atrof-muhitni asrash, o'simlik va hayvonot dunyosini muhofaza qilishga doir bir qator normalar o'z aksini topdi.

Qonun loyihasi bilan "O'simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to'g'risida" gi, "Hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to'g'risida" gi, "Ov qilish va ovchilik xo'jaligi to'g'risida" gi qonunlarga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilmoqda.

Qonun loyihasini moddama-modda ko'rib chiqish chog'ida deputatlar tomonidan bir qator savollar o'rtaga tashlandi. Jumladan, deputat Shuhrat Sharafutdinov "O'simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to'g'risida" gi Qonunning 31-moddasi to'rtinchi qismiga kiritilgan yangi qoidalariga to'xtalib o'tdi. Deputatning qayd etishicha, Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi tomonidan yovvoyi holda o'suvchi noyob o'simliklarni tabiiy yashash muhitidan ajratib olishga doir ruxsatnomalar berilishiga cheklav o'rnatish taklif etilyapti. Bu cheklavni aynan mazkur vazirlik taklifi bilan Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanishi ham ko'rsatilgan. Ruxsatnomaning mohiyatiga qaraladigan bo'lsa, ruxsatnoma tartib-tamoyili joriy etilishining mazmuni aynan cheklavni bildiradi. Kiritilayotgan yangi qoidalar bilan



yana qo'shimcha cheklav belgilanayotgani mohiyatiga to'g'ri kelmaydi. Bundan tashqari, 31-moddaning birinchi qismida ushbu ruxsatnomani berish tartibi aniq ko'rsatilyapti. Ya'ni Fanlar akademiyasining xulosasi asosida, Vazirlar Mahkamasining qarori qabul qilingandan so'nggina Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi tomonidan ushbu ruxsatnoma beriladi. Agar qaysidir turdagi o'simliklarning yo'qolib ketish xavfi kuchaysa va bunga cheklav o'rnatish zarur bo'lsa aynan ruxsatnoma berish tartibi asosida cheklav maqsadga muvofiq. Aftidan, to'rtinchi qism bilan to'ldirilayotgan bu qoidani amaliyotda qo'llash qiyinchilik keltirib chiqarishi mumkin. Bu bo'yicha mas'ul qo'mita hamda qonun tashabbuskorlari tomonidan tegishli javob berildi. Muhokama chog'ida deputatlar qonun loyihasidagi ayrim normalarni tahriri tuzatish kerakligiga e'tibor qaratib, bu bo'yicha o'z takliflarini berdi.

Munozaralardan so'ng, qonun loyihasi deputatlar tomonidan qabul qilindi. Qayd

Qulay tartib-taomillar taqdim etiladi

Majlisda "Sanoat namunalari xalqaro ro'yxatdan o'tkazish to'g'risidagi Gaaga bitimining Jeneva aktiga (Jeneva, 1999-yil 2-iyul) O'zbekiston Respublikasining qo'shilihi haqida" gi qonun loyihasi ikkinchi o'qishda ko'rib chiqildi.

Ta'kidlanganidek, hozirgi paytda 70 dan

etilganidek, ushbu hujjat Qizil kitobga kiritilgan turlarni saqlab qolish, takror ko'paytirish va ularning yashash-o'sish muhitini asrash, alohida muhofazaga olish hamda kelajak avlodga busbutunligiga qoldirish imkonini beradi.

Yana bir xalqaro hujjat ratifikatsiya qilinmoqda

"Ijrochilar, fonogramma tayyorlovchilar va eshittirish tashkilotlari huquqlarini muhofaza qilish to'g'risidagi xalqaro konvensiyaga (Rim, 1961-yil 26-oktyabr) O'zbekiston Respublikasining qo'shilihi haqida" gi qonun loyihasi ham muhokama markazida bo'ldi.

Qayd etilganidek, mazkur konvensiya ishtirokchi davlatlarda xorijiy turdosh huquq egalari ijrochilar, fonogramma yaratuvchilar va eshittirish tashkilotlari hamda uzatuvchi tashkilotlarning huquqlarini himoya qilishga qaratilgan bo'lib, ishtirokchi davlatlarning ijrochilari, fonogramma tayyorlovchilari va efriga uzatuvchi tashkilotlarga nisbatan milliy rejimni ta'minlashga bo'lgan huquqlari Bern konvensiyasi bo'yicha mualliflik huquqi doirasida muhofaza etilishiga hamda ushbu mediamahsulotlardan noqonuniy asosda foydalanishning oldini olish imkonini beradi.

Hozirgi kunda respublikamiz hududida xorijiy turdosh huquq egalari ijro, fonogramma, eshittirishlarga bo'lgan huquqlari Bern konvensiyasi bo'yicha mualliflik huquqi doirasida muhofaza etiladi. Lekin o'rganishlar jarayonida xorijiy huquq egalari ijrosidan, fonogrammasidan, eshittirishlar tayyorlovchi tashkilotlarning eshittirishlaridan shartnomasiz foydalanish (noqonuniy) holatlari ham aniqlangan.

Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar sohasidagi xalqaro shartnomalarga qo'shilish va ulardagi normalar ijrosi ta'minlanishi mamlakatimizning jahondagi imji hamda investitsiyaviy jozibadorligini oshirish bilan bir qatorda, Jahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lib kirishida intellektual mulk huquqlarining savdo aspektlari to'g'risidagi bitim qoidalarini implementatsiya qilish imkonini beradi.

Deputatlar ta'kidlashicha, O'zbekistonning Rim konvensiyasiga qo'shilishi turdosh huquq obyektlari himoyasini samarali ta'minlash, xalqaro standartlarni joriy etish, mualliflik huquqi va turdosh huquqlar sohasini rivojlantirishga zamin yaratadi.

Qonun loyihasi deputatlar tomonidan qabul qilindi va Senatga yuborildi.

Umra tadbirlarini tashkil etishning huquqiy mexanizmlari belgilanadi

Majlisda "Litsenziyalash, ruxsat berish va xabardor qilish tartib-taomillari to'g'risida" gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida" gi qonun loyihasi birinchi o'qishda muhokama qilindi.

Mamlakatimizda fuqarolarning vijdan erkinligi va diniy e'tiqodiga oid konstitutsiyaviy huquqlarini ta'minlash hamda ularni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimi takomillashtirilib, fuqarolarga Umra ziyorati uchun keng imkoniyatlar yaratilmoqda. Lekin Umra tadbirlarini tashkil etish va amalga oshirishning aniq huquqiy mexanizmlari yaratilmagan ziyoratchilar huquqlarini to'liq himoya qilish imkonini bermayapti.

Mazkur qonun loyihasi bilan fuqarolarning Umra ziyoratini huquqiy jihatdan tartibga solish va ziyoratchilarning haq-huquqlarini ta'minlash maqsadida "Litsenziyalash, ruxsat berish va xabardor qilish tartib-taomillari to'g'risida" gi Qonunga Umra tadbirlari tashkil etish va o'tkazishga oid xizmatlarni ko'rsatish bo'yicha qo'shimcha normalar kiritilmoqda.

Shuningdek, ziyoratchilarning Umra amallari munosib va xavfsiz bajarishlari uchun shart-sharoitlar yaratish, xorijda ularning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish va kafolatlangan xizmatlardan foydalanishni ta'minlash, davlat xaridari uchun ajratilgan mablag'lar xavfsizligi va ularni ishonchli saqlash mexanizmlari aniq belgilab berilmoqda.

Majlisda qonun loyihasi deputatlar tomonidan qabul qilindi.

Shaharozlikka oid talablarni buzganlik uchun javobgarlik kuchaytiriladi

Majlisda ko'rib chiqilgan navbatdagi hujjat — "Seysmik xavfsizlikni ta'minlash tizimi takomillashtirish maqsadida O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida" gi qonun loyihasi bo'ldi.

So'nggi yillarda seysmologiya, inshootlarning seysmik mustahkamligini va seysmik xavfsizlikni ta'minlash sohalarini rivojlantirish hamda soha tashkilotlarining faoliyati samaradorligini tubdan oshirish bo'yicha keng ko'lami kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

O'z navbatida, respublikamizda barpo etilayotgan va qayta ta'mirlanayotgan bino va inshootlarning zillabardoshligini oshirishda tashkilotlarning mas'uliyatini kuchaytirish, shaharozlik qonunchiligida belgilangan



talablarga qat'iy rioya etilishi bo'yicha nazoratni izchil olib borish hamda sodir etilgan huquqbuzarlik va jinoyatga jazo ta'sirchanligini oshirish zarurati yuzaga kelmoqda.

Qonun loyihasi bilan shaharozlikka oid qonunchilik talablarini buzganlik uchun jinoyi va ma'muriy javobgarlikni kuchaytirish taklif etilyapti. Shuningdek, inspeksiya yoki sudlarda sodir etilishi mumkin bo'lgan korruptsiyaning oldini olish maqsadida ma'muriy jarimalar miqdorini yanada qilib belgilash, ya'ni amaldagi ma'lum bir summadan ma'lum summagacha degan normalardan voz kechish ilgari surilmoqda.

Bundan tashqari, Jinoyat, Jinoyat-prosessual kodekslariga tegishli o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilayotir. Xususan, Jinoyat kodeksining amaldagi 2293-moddasining sanksiyalari kuchaytirilib, bosh rejalariga zid ravishda qurganlik, foydalanishga qabul qilish qoidalarini buzganlik, ko'p kvartirali uylarning yerto'la va birinchi qavatdagi konstruksiyalarni buzganlik va ruxsat olmasdan qurugulik uchun jinoyi javobgarlik belgilanmoqda.

Ushbu jinoyatlar uchun 2293-moddada ma'muriy jazo qo'llanilganidan so'ng, axloq tuzatish ishlari (3 yilgacha) yoki shu muddatga ozodlikni cheklash, ozodlikdan mahrum qilish, odamlar o'limiga sabab bo'lsa yoki boshqa og'ir oqibatlariga olib kelsa, ozodlikni cheklash yoki ozodlikdan mahrum qilish (5 yilgacha) jazosini qo'llash taklif etilmoqda.

Qonun loyihasining qabul qilinishi shaharozlik faoliyati sohasida ko'payib borayotgan noqonuniy qurilishlarning oldini olishga, tasdiqlangan bosh rejalariga rioya etilishini ta'minlashga, aholining sog'lig'i, hayoti va xavfsizligini ta'minlashga, qurilish sifati oshirish, sodir etilgan huquqbuzarliklarni kamaytirib, jazoning ta'sirchanligini oshirishga xizmat qiladi.

Majlisda qonun loyihasi deputatlar tomonidan qabul qilindi.

"Xalq so'zi".

ILG'OR TAJRIBA VA ISTIQBOLLI LOYIHALAR HUDUD TARAQQIYOTIGA XIZMAT QILMOQDA

Yangi vazifalar — yangi imkoniyatlar

Azizbek ABDURASULOV, Yangi Namangan tumanidagi "Gavhar Jewel Group" MCHJ raisi:



— Zargarlik sohasi qadimiy hunar bo'lsa-da, bu yumush bilan yaqin vaqtgacha qo'l mehnati asosida shug'ullanib kelingan. Bundan ikki yil avval Farg'ona vodiysida birinchi bo'lib uni sanoat usuliga ko'chirishga erishdik. O'zbek milliy brendini dunyoga tanitishni maqsad qilgan korxonamizda qimmatbaho metallar va toshlar xaridi uni qayta ishlash va boshqa barcha zargarlik amaliyotlari bajariladi. Loyihaning qiymati 6,5 mln. AQSH dollariga teng bo'lib, mas'uliyati cheklangan jamiyatni shakllantirish jarayonida Italiya, Germaniya, Turkiya va Rossiyadan texnologik uskunalar olib kelib, o'rnatildi. Yillik ishlab chiqarish hajmi 1200 kilogrammga teng bo'lgan quvvatlar bugun to'la harakatga keltirilgan. 50 dan ziyod kishilarni doimiy mehnat o'ri bilan ta'minladik. Bunga


qo'shimcha 200 ga yaqin mahalliy zargarlar kooperatsiya asosida faoliyat olib borayotir.

Natijada faoliyatimiz tobora ravaq topib boryapti. Avvalgi yili Buxoroda uyushtirilgan xalqaro zardo'zlik va zargarlik festivalida muvaffaqiyatli ishtirok etib, "Eng yaxshi zargarlik korxonasi" nominatsiyasi bo'yicha birinchi o'ringa sazovor bo'lgandik. O'tgan yili esa qimmatbaho toshlar va zargarlik buyumlari eksportini qo'llab-quvvatlash kengashi (GJEPC) tomonidan Dubai shahrida tashkil etilgan "International GEM & Jewellery show" nufuzli xalqaro zargarlik anjumanida "Global icon" mukofoti bilan taqdirladik.

Davlatimiz rahbari viloyatimizga tashrifini aynan bizning korxonamizdan boshlagani bizga g'urur bag'ishladi. Muloqot chog'ida Prezident mamlakatimizda qazib olinayotgan oltinning atigi 6 foiz qayta ishlanayotgani, eksport hajmi kam ekanligi haqida so'z yuritildi. Bu, soha mehnatchilari, jumladan, bizning korxonamiz oldida ham yangi vazifalarni qo'yadi. Shundan kelib chiqib, tashqi bozorga mahsulot chiqarish hajmini keskin oshirish tadbirlarini ishlab chiqamiz.

Yuksak e'tibor faoliyatimizga kuchli motivatsiya berdi

Baxtiyor BEKMIRZAYEV, Namangan tumanidagi "Nammotor servis" MCHJ rahbari:



— Ishlab chiqarishni mahalliyatlash orqali iste'mol bozorini raqobatbardosh mahsulotlar bilan to'ldirish iqtisodiyotda amalga oshirilayotgan islohotlarda ustuvor o'rin tutadi. Ayni shu maqsadga yo'naltirilgan

natija bera boshlaganiga qaramay, respublikamizda yuqorida ko'rsatilgan har ikki yo'nalishdagi mahsulotning importi saqlanib qolayotgani kuzatiladi. Xususan, 2023-yilning o'zida chetdan 120 mln. AQSH dollariga teng elektrovigatellar hamda 30 mln. dollarlik suv nasoslari sotib olinganligi buni tasdiqlaydi.

Xitoylik hamkorlar bilan amalga oshirishga kirishgan 14,5 mln. dollar qiymatdagi navbatdagi loyihamiz, aytish mumkinki, bu yo'nalishdagi holatga ijobiy ta'sir ko'rsatishi bilan ahamiyatlidir. Bunda mahsulot hajmini ko'paytirish bilan bir qatorda emallangan sim tayyorlashni o'zlashtirish ko'zda tutilgan.

Umuman olganda, loyiha to'la ijrosini topishi bilan ishlab chiqarish hajmi 500 mlrd. so'mga yetkaziladi. Emallangan simning 90 foizi eksportga yo'naltiriladi.

Viloyatimizga tashrif buyurgan davlatimiz rahbari faoliyatimiz bilan yaqindan tanishib, keng ko'lamdagi ishlarimizni ma'qulladi. Bu bizga yaxshigina motivatsiya berdi. Shundan kelib chiqib, ilm va ishlab chiqarish integratsiyasini yanada kuchaytiramiz.

Ma'naviy poklik, xayr-saxovat ayyomi

Tursunboy FAYZULLAYEV, mehnat faxriysi:



— Davlatimiz rahbari Namangan viloyatiga tashrifining birinchi kuni yakunida, ya'ni dushanba kuni mamlakatimiz bo'ylab o'tkazilgan iftorlikda ham ishtirok etdi. Ehsonda qo'shni Farg'ona va Andijon viloyatlaridan ham nuroniylik vakillari jam bo'ldi.

vakillari bilan birgalikda qilinayotgan iftor inson qadri ulug'lashga, o'sib kelayotgan avlodni oliyanon ruhda tarbiyalashga xizmat qilishini alohida ta'kidladi. Ramazon oyining amallari, bu oyda amalga oshirilayotgan xayriy ishlar haqida so'z yuritildi.

Chindan ham, xalqimiz azal-azaldan bir-biriga tayanch bo'lib, mehr-muruvvat ko'rsatib yashashni odamiylikning oliy mezonini deb biladi. Ayni shu oliyanon fazilatlar bizni doimo yagona xalq, yagona millat etib birlashtiradi, hayot sinovlari va qiyinchiliklarni yengib o'tishda beqiyos kuch-quvvat beradi.

Muborak oqshomdagi tadbir ana shunday ezu ishlarining yana bir amaliy ifodasi sifatida ko'ngillarga o'zgaracha bir ilqilib olib kirdi. Duolar qabul bo'ladigan, yaxshi amallarning savobi ziyoda qilib beriladigan muborak oyda barchamizning niyatlarimiz, qilgan savobli amallarimiz ijobat bo'lishini so'rab qolamiz!

Qudratilla NAJMIDDINOV ("Xalq so'zi") yozib oldi.

KIMYO — ZAMONAVIY SANOATNING "KATALIZATORI"

Insoniyatning azaldan kimyoviy hodisalar orqali olamshumul kashfiyotlar yaratgani tarixdan bizga yaxshi ma'lum. Kimyoning dastlabki rivojlanish davridagi fikrlar, tasavvurlar, tadqiqotlarni o'rganishda o'zbek olimlarining ham munosib hissasi bor. Binobarin, ona zaminimizda kimyo fani va sanoatini rivojlantirish uchun bebaho imkoniyatlar mavjud. Qolaversa, xilma-xil foydali qazilmalar, arzon energiya manbai bo'lmish gidroenerjalar, boy tabiiy xomashyo zaxirasi kimyo sohasining shakllanishi va taraqqiy etishida muhim asos bo'lib xizmat qilmoqda.

Mushohada

Bugun qishloq xo'jaligini qilasmi, tog'-kon kompleksi yoki qurilish, mebel, nef-gaz yoki elektron hamda elektrotexnika sanoati deysizmi, xullas, biror-bir soha yo'qki, kimyo sanoati mahsulotlarining iste'molchisi bo'lmasa.

Importdan — eksportga Jahonda ro'y berayotgan voqealar natijasida iqtisodiyot uchun zarur xomashyo va mahsulotlar narxi, ulami yetkazib berish xarajatlari oshmoqda. Shuning uchun, eng avvalo, o'zimizdagi xomashyoni chuqur qayta ishlash, raqobatbardosh mahsulotlarni ko'paytirish davr talabiga aylangan. Zero, mamlakat iqtisodiyoti va aholi bandligida sanoat juda katta o'rin tutadi. Bu sohaga zarur sharoit yaratish maqsadida so'nggi yillarda 19 ta erkin iqtisodiy zona va 400 dan ziyod kichik sanoat zonalarini tashkil etildi. Ularning infratuzilmasiga 10 trln. so'm mablag' yo'naltirildi.

Shuningdek, to'qimachilik, kimyo, qurilish materiallari, charm, farmatsevtika, elektr texnikasi kabi tarmoqlarni drayverga aylantirish uchun 3 mlrd. dollarlik moliyaviy resurslar ajratildi. Sanoatni xomashyo bilan ta'minlash uchun geologiya-qidiruv ishlari 3 barobar ko'paytirilib, 600 tadan ziyod yangi konlar aniqlandi. Natijada oxirgi besh yilda sanoat korxonalarini soni 2 barobar ko'payib, 100 mingtaga yetdi, ishlab chiqarish hajmi 1,4 baravarga ko'paydi.

Yurtimizda kimyo sanoati uchun mo'l xomashyo mavjud. Hozirgi kunda 3 mlrd. dollarlik loyihalar shakllantirilgan. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev kimyo sanoatini jadal rivojlantirish, tarmoqqa xorijiy investitsiya va zamonaviy texnologiyalarni jalb qilish masalalariga alohida e'tibor qaratib kelmoqda.

Ma'lumki, kimyo sohasi — zamonaviy sanoatning "katalizatori" bo'lib, har qanday ishlab chiqarish negizida kimyoviy jarayonlar yotadi, bu sohasiz iqtisodiyotda taraqqiyot bo'lmaydi. O'zbekiston zaminida Mendeleev jadvalidagi barcha kimyoviy elementlar mavjud, mamlakatimiz uglevododorlarga boy bo'lsa-da, kimyo sanoatimiz yaqin gacha, asosan, qishloq xo'jaligi uchun mineral o'qit ishlab chiqarishga ixtisoslashtirilgan edi. Qurilish materiallari, farmatsevtika, tekstil, mashinasozlik kabi tarmoqlar uchun zarur bo'lgan murakkab polimerlar, katalizatorlar, reagentlar va sintetik tolalar ishlab chiqarish yo'lga qo'yilmagandi. Natijada har yili 1,5 mlrd. dollarlik kimyo mahsulotlari import qilinib, ishlab chiqarilayotgan fosfor va kaliyli mineral o'qitlar ham mavjud talabning faqat uchdan birini qoplatadi, xolos. Murakkab mineral o'qitlar ishlab chiqarish quvvatlari 60 — 70 foizga eskirgan energiya resurslarining ortiqcha sarflanishi, kimyo mahsulotlari tannarxining asossiz oshishiga olib kelardi.

Yaqin yillardan boshlab, mineral o'qitga talabni qondirish uchun 3,1 mlrd. dollarlik 17 ta investitsiya loyihasi amalga oshirila boshlandi. Bundan tashqari, kimyo sanoati mahsulotlarini diversifikatsiya qilish maqsadida 2025-yilgacha 4,2 mlrd. dollarlik yana 17 ta loyiha hayotga tatbiq etilayotir. Shuning uchun kimyo tarmog'iga xorijiy investitsiya va zamonaviy texnologiyalarni jalb qilish, mahsulot hajmi va turini ko'paytirish, sohaning eksport salohiyatini oshirishga e'tibor yanada kuchaytirilmoqda. Kimyo sanoati hamda o'qitlar ishlab chiqarish quvvatlarini saqlash va modernizatsiyalash maqsadida Jahon banki guruhining azosi bo'lgan IFC va O'zbekiston hukumati o'rtasida bitim imzolangan bejiz emas. Hamkorlik shartnomasi ushbu sohaga sarmoyalarni jalb qilish, barqaror amaliyotni rag'batlantirish va malakali ish bilan ta'minlash uchun yangi imkoniyatlar yaratishga qaratilgan.

Bu bilan esa O'zbekiston o'zining boy tabiiy resurslarini hisobga olgan holda, kimyoviy moddalar va o'qitlarning asosiy eksportchisiga aylinishi mumkin.

Megaloyihalar — taraqqiyot garovi

Ma'lumotlarga ko'ra, yurtimizda ishlab chiqarilayotgan noo'g'it mahsulotlar, asosan, polietilen, polipropilen, polistiroлга xorijiy davlatlarda 100 mlrd. dollardan ortiq hajmda ehtiyoj mavjud. Bu esa biz uchun yaxshi imkoniyat. Shu

sababli, kimyo sanoatida mahsulot turlarini diversifikatsiya qilish uchun organik moddalar ishlab chiqarish va noorganik moddalar bo'yicha 20 ga yaqin loyihalarni amalga oshirish ko'zda tutilmoqda. Davlat rahbari mutasaddirlarga ushbu loyihalar ijrosi uchun xorijiy investorlarni jalb qilish bo'yicha topshiriqlar berayotgani sababi shunda.

2021-yil 25-dekabr kuni Qashqadaryo viloyatining G'uzor tumanida "Uzbekistan GTL" zavodi ochilishi kimyo sanoatida tub burilish yasadi. Korxonada ishlab chiqarilayotgan nafta mahsulotlari hisobidan viloyatdagi "Sho'rtan gaz-kimyo" majmuasining ishlab chiqarish quvvatini 3 barobar kengaytirish imkoni yaratildi. Ya'ni naftani qayta ishlash hisobidan yiliga 380 ming tonna polietilen va polipropilen tayyorlanadigan yangi ishlab chiqarish quvvatini ishga tushirish va qo'shimcha mingga yaqin yangi ish o'rinlari yaratishga erishildi.



Ma'lumotlarga ko'ra, yurtimizda ishlab chiqarilayotgan noo'g'it mahsulotlar, asosan, polietilen, polipropilen, polistiroлга xorijiy davlatlarda 100 mlrd. dollardan ortiq hajmda ehtiyoj mavjud. Bu esa biz uchun yaxshi imkoniyat. Shu sababli, kimyo sanoatida mahsulot turlarini diversifikatsiya qilish uchun organik moddalar ishlab chiqarish va noorganik moddalar bo'yicha 20 ga yaqin loyihalarni amalga oshirish ko'zda tutilmoqda.

Shuningdek, korxonada mahsulotlaridan xomashyo sifatida foydalanilgan holda, korxonada negizida alkil-benzol, buten va geksen, sintetik moylar, malein angidrid, emulsion qo'shimchalar, katalizatorlar kabi mahsulotlar ishlab chiqarish bo'yicha qiymati 620 mln. dollar bo'lgan 6 ta loyiha amalga oshirilmoqda. Mazkur megaloyiha yonilg'i mahsulotlari importini kamaytirishga, eksportning oshishiga, iqtisodiyot tarmoqlarini ekologik toza yonilg'i bilan ta'minlashga, yangi turdagi mahsulotlar ishlab chiqarishga xizmat qilyapti.

Kimyo sanoatida yirik investitsiya loyihalarini amalga oshirish uchun tizimning moliyaviy barqarorligini ta'minlash lozim. Shu bois "O'zkimyosanoat" aksiyadorlik jamiyatining moliyaviy ahvolini yaxshilash borasida amaliy choralar qo'l urildi. Ayni chog'da sohaga innovatsiyalar joriy qilish, ilm-fan salohiyatida samarali foydalanish dolzarb vazifaga aylandi. Shuning uchun Koreya kimyo-texnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti (KRIC) bilan hamkorlikda Toshkent kimyo-texnologiya ilmiy-tadqiqot instituti negizida ilmiy tadqiqot, loyihalash va muhandislik, kadrlar tayyorlashga ixtisoslashtirilgan markaz barpo etilyapti.

Aytilish joizki, so'nggi yillarda sohani modernizatsiyalash, yuqori qo'shilgan

qiymatli kimyoviy mahsulotlar nomenklaturasini kengaytirish bo'yicha ko'plab chora-tadbirlar amalga oshirildi. Tarmoq korxonalarining rentabelligini ko'tarish maqsadida bozor mexanizmlari joriy etilib, narxni shakllantirish tartibi butunlay qayta ko'rib chiqildi. Natijada kimyo tarmog'i 2019-yildan beri yilni 2-3 barobar ko'p foyda bilan yakunlayotgani e'tiborga molik. "Navoiyazot" AJda polivinilxlorid, kaustik soda va metanol ishlab chiqarish majmuasi ishga tushirildi. "Sho'rtan gaz-kimyo" kompleksida sintetik suyuq yonilg'i, "Navoiyazot" AJda azot kislotasi, ammiyak va karbamid ishlab chiqarish zavodlari qurilgani ham yutuqlar garovi bo'lib xizmat qilyotir.


Yodingizda bo'lsa, Prezidentimiz 2020-yil yanvar oyida parlamentga yo'llagan Murojaatnomasida va Oliy Majlis palatalari qo'shma majlisida kimyo sohasiga alohida e'tibor qaratib, hukumat oldiga uni modernizatsiya qilish, ilm-fan va innovatsiyalarni keng joriy etish bo'yicha qator vazifalar qo'ygan edi. Bu bejiz emas. Chunki mazkur tarmoqda muammolar, hali foydalanilmayotgan imkoniyatlar ko'p. Jumladan, yurtimizda ishlab chiqarish imkoni bo'lgan, murakkab tarkibga ega bo'lmagan kimyo mahsulotlari chetdan olib kelinmoqda. Eksport strukturasi diversifikatsiya qilinmagan, bunda hanuzgacha mineral o'qitlar ulushi juda katta. Ishlatilayotgan uskunalar 60 foiz eskirgan, energiya sarfi me'yordan 2-3 baravar ortiq. Bugungi vazifa esa tarmoqdagi har bir



chuqur qayta ishlash bo'yicha yangi quvvatlarini barpo etishga xizmat qilmoqda.

Qarorga binoan, kimyo sanoatini yanada rivojlantirish, uning investitsiyaviy jozibadorligini oshirish va tarmoqni diversifikatsiya qilishga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb etish hajmini kengaytirish maqsadida optimallashtirilgan va yangi istiqbolli loyihalar bilan to'ldirilgan, hisoblangan qiymati 12,1 mlrd. AQSH dollariga teng, shu jumladan, 1,7 mlrd. AQSH dollari miqdorida to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar va kreditlar hisobiga 31 investitsiya loyihasini amalga oshirishni nazarda tutuvchi hamda 2019 — 2030-yillarda kimyo sanoatini rivojlantirish dasturi ma'qullandi. Azotli, fosforli, kaliyli va murakkab mineral o'qitlarni, jumladan, ushbu mahsulotlarni "Navoiyazot" AJ, "Farg'onazot" AJ, "Ammofos-Maksam" AJ, "Dehqonobod kaly zavodi" MCHJ negizida ishlab chiqarish bo'yicha amaldagi quvvatlarni modernizatsiya qilish, kengaytirish hamda energiya jihatidan samarador yangi quvvatlarni barpo etish choralari ko'rdi.

"O'zbekneftgaz" AJ bilan birgalikda va yetakchi xorijiy kompaniyalar ishtirokida hamda ilg'or texnologiyalar va zamonaviy innovatsion ishlanmalarni qo'llagan holda polimer mahsulotlarini ishlab chiqarish bo'yicha yangi korxonalar barpo etildi. Tarmoq korxonalarining mavjud ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish samaradorligini, ularning negizida iqtisodiyot tarmoqlarida talab qilinayotgan kimyoviy mahsulotlarning yangi turlarini, jumladan, metallurgiya, neft-gaz va to'qimachilik sanoatlari



korxonada faoliyatini tanqidiy tahlil qilib, mahsulotlar sifatini oshirish, energiya sarfini kamaytirish hisobiga tannarxni pasaytirish, raqamli texnologiyalarni qo'llash, inson hayoti uchun xavfli jarayonlarda avtomatizatsiya darajasini ko'tarishga qaratilgan.

Ilm-fan va ishlab chiqarish uyg'unligi — yutuqlar omili

Taraqqiyotning hozirgi bosqichida muhim yo'nalishlardan biri kimyo sohasi ekan, tarmoqda ta'lim va ilm-fanlarni takomillashtirish, zamonaviy kadrlar tayyorlash juda muhim. Ilm-fan va ishlab chiqarish o'rtasidagi aloqani mustahkamlash, buning uchun tadqiqotlarning soha korxonalarini ehtiyojiga hamohangligini ta'minlash zarur.

Aslida, bunday sanoat tarmoqlarini tashkil etish ichki bozorni rivojlantirish, shuningdek, eksport tovarlari hajmini oshirishga xizmat qiladi. Ya'ni sohada yangi mahsulotlar ishlab chiqarishning o'zlashtirishi korxonalarining xalqaro raqamli mahsulotlarga qatnashgan holda, dunyo bozoriga integratsiyalashuvi tufayli tizimning eksport salohiyati o'z-o'zidan oshib boradi. Va ilgari kimyo sanoati mahsulotlari qo'shni davlatlarga sotilgan bo'lsa, endilikda MDH, Yevropa, Janubiy, Janubi-Sharqiy Osiyoning qator mamlakatlariga eksport qilinishi uchun imkoniyat yuzaga keladi.

Albatta, keyingi yillarda sohaga qaratilayotgan katta e'tibor tufayli kimyo sanoatida kuchli o'zgarish yuz berdi. Xususan, 2019-yil 3-apreldagi "Kimyo sanoatini yanada isloh qilish va uning investitsiyaviy jozibadorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Prezident qarori kimyo sanoati korxonalarini moliyaviy-iqtisodiy sog'lomlashtirish va ularning faoliyatini barqarorlashtirish, amaldagi ishlab chiqarishlarni modernizatsiya qilish, uglevodorod xomashyosi va mineral resurslarni

Imkoniyatlar istiqbolga yo'l ochadi

Sohadagi yana bir vazifa raqamlashtirishdir. Raqamli iqtisodiyot sarmoyat iqtisodiyotining kelajagi yo'q. Shuning uchun kimyo sanoatida raqamlashtirish loyihalari ishlab chiqilgan. Buning hisobiga masalan, bitta korxonada bir necha million kub metr gaz va bir necha ming kilovatt-soat elektr energiyasini iqtisod qilishga zamin yaratiladi. Natijada korxonaning eksport salohiyatini oshirish va valyuta tushumlarini ta'minlash, sanoatda raqobatbardoshlikni kuchaytirish imkoniyati kengaydi.

Davlatimiz rahbarining so'nggi yillarda kimyo sanoatini jadal rivojlantirish, sohaga keng qamrovli xorijiy investitsiyalarni jalb etish maqsadida qabul qilingan Farmon va qarorlarida bir qancha vazifalar belgilangan. Ular qatorida "O'zkimyosanoat" AJ korporativ xalqaro kredit reytingini olishi ham qayd etilgan. Shu bois kimyo korxonalarida davlat ulushini qisqartirish, transformatsiya qilish, sohaga korporativ boshqaruv va xalqaro kredit reytingini qo'lga kiritish borasidagi ishlar yuzasidan keng ko'lami islohotlar amalga oshirilmoqda.

Xususan, "O'zkimyosanoat" AJ tomonidan kimyo sanoatining investitsiyaviy jozibadorligini yangi darajaga olib chiqish maqsadida "Fitch Ratings" va "Moody's" kabi nufuzli xalqaro reyting agentliklari bilan xalqaro kredit reytingini qo'lga kiritish bo'yicha shartnomalar imzolangan. Natijada "O'zkimyosanoat" AJ yurtimiz kimyo sanoati tarixida ilk bor "Barqaror" xalqaro kredit reytingini qo'lga kiritdi. Kredit reyting berilishi "O'zkimyosanoat" AJ uchun bir qator afzalliklarni yaratadi.

Birinchidan, potensial investorlarda korxonalarimizning moliyaviy ko'rsatkichlariga ijobiy munosabat va ishonch hosil qilib, xalqaro moliyaviy instrumentlardan samarali foydalanish holda tashqi va ichki moliya bozorlaridan resurslarni jalb qilish imkoniyati paydo bo'ladi. Bunda to'g'ridan-to'g'ri chet el investitsiyalari, xalqaro moliyaviy institutlardan qo'shimcha ta'minotlarisiz arzon kredit resurslarini jalb qilish mexanizmi yengillashtirildi.

Ikkinchidan, jamiyat va tarmoq korxonalarining qimmatli qog'ozlarini xalqaro birjalarda joylashtirish hamda sotish imkoniyati yaratiladi. Uchinchidan, investitsiyaviy loyihalarni amalga oshirish uchun tashqi qarz mablag'larini jalb qilishda talab etiladigan qo'shimcha xarajattar iqtisod qilindi.

Umuman, so'nggi yillarda sohada yaratilgan poydevor kelgusi yillarda kimyo sanoati salohiyatining barqaror o'sish dinamikasini ta'minlashga qodir. Shu bilan birga, kimyo sanoatining barcha sohasini uzoq muddatli izchil rivojlantirish, eng ilg'or xorijiy tajribani hisobga olgan holda tarmoqni o'zgartirish jarayonlarini tezlashtirishni taqozo etishi, shubhasiz. Shu jihatdan, bugungi kunda kimyo sanoatida ishlab chiqarish hajmini va eksportni oshirish, sohani raqamlashtirish, korxonalarda operatsion xarajattar va energiya sarfini qisqartirish orqali mahsulot tannarxini kamaytirishga o'z amaliy ishlar jadal olib borilmoqda.

Ushbu keng ko'lami islohotlar, modernizatsiya jarayonlari esa mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishga qaratilganligi bilan muhim ahamiyat kasb etadi. Zotan, sohaning izchil ravaq topishi nafaqat iqtisodiyotni mustahkamlaydi, balki ish o'rinlari ochilishi hamda mahsulotlarning jahon bozorlariga erkin olib chiqilishiga zamin yaratadi.

Xotam SAYDAHMEDOV, "Maxam-Chirchiq" AJ boshqaruvi raisi, xalq deputatlari Toshkent viloyati Kengashi deputati.

Bugun — Xalqaro teatr kuni

QADIM ILDIZLARGA EGA SAN'AT

27-mart — Xalqaro teatr kuni dunyoning ko'plab mamlakatlari qatori O'zbekistonda ham o'zgacha shukuh bilan nishonlanadi. Bayram bahona milliy teatrimizning o'tmishi, buguni va kelajagi haqida mulohazalar yuritiladi, yutuq hamda kamchiliklar sarhisob qilinadi, rejalar tuziladi.



og'zaki manbalardagi ma'lumotlar bu gipotezalarni haqiqatga yaqinlashtiradi. Biroq inson tafakkuri va iste'dodining mahsuli bo'lmish bu g'aroyib san'at turi qanchalik qadim, go'zal va ahamiyatli bo'lmasin, go'yoki lovvullab yongan shamek bir lahza lip etib, yo'qliklarga singib ketishi mumkin.

Shuning uchun bo'lsa kerak, azal-azaldan bu sirlil shu'laga parvona kishilar o'z hayrat va tuyg'ularini toshga, matoga, qog'ozga, hatto haykal va ro'zg'or buyumlariga muhrlab qoldirganlar. Yillar, asrlar, zamonlar osha teatr manzaralari shu zayl bizgacha yetib kelgan. Bu manzara to'rsoma teatrshunoslik ilmi bunyod bo'lgunga qadar xalq og'zaki ijodi, mumtoz adabiyot va tasviriy san'at (Sharqda miniatyura san'ati) namunalarida ham zohir bo'lib turgan. Xususan, Mir Alisher Navoiy hazratlari, Zahiriddin Muhammad Bobur, Forobiy va qator mumtoz adiblarimiz ijodida mashshog'u hozirlar, dorboz-u ko'zboylag'ichlar, qiziqchi-yu masxaraboz, taqildichi-yu qog'irchoqboz va boshqa hunar egalarning ijro mahorati hamda tomoshalari tasvirlangan lavhalar bisyor. Qadim zamonlardan to shu kungacha bo'lgan salkam 3 ming yilga yaqin davmi qamrab olgan o'zbek teatri tarixiga bag'ishlangan yirik tadqiqotlarda hattoki, ba'zi mamlakatlar hali dunyo xaritasida yo'q bo'lgan davrlardayoq zaminimizda juda katta sivilizatsiyaning yorqin namunasi hisoblangan tomosha san'atining rivojlanganligi ilmiy asoslangan.

O'z navbatida, bu so'zlar teatr ijodkorlariga ham katta mas'uliyat yuklaydi, tomoshabinlarning dunyoqarashi, ma'naviyati va madaniy saviyasini oshirishga xizmat qiladigan, ularga estetik zavq-u shavq ulashadigan, ezgu ishlarga da'vat qiladigan badiiy-barkamol sahna asarlari yaratishga chaqiradi.

Ayonki, yurtimiz azaldan yuksak sivilizatsiya va madaniyat o'choqlaridan biri bo'lgan. Buni xalqimizning boy ilmiy-madaniy merosi, toshga muhrilgan qadimiy yozuvlar, bebaho me'moriy obidalar, nodir qo'lyozmalar, turli topilmalar, osori-atiqalar ko'rsatib turibdi. Ma'lumotlarga ko'ra, mamlakatimiz sarhadlarida teatr san'atining dastlabki itidoyi ko'rinishlari eramizdan avvalgi bir necha ming yilliklarga borib taqaladi. Arxeologik topilmalar, turli yozma va

teatr sohasini yanada rivojlantirish borasida belgilangan vazifalar sohani ravnaq toptirish, teatrlarning moddiy-texnika bazasi va kadrlar salohiyatini yuksaltirish, xalqimiz, ayniqsa, yoshlarda teatr san'atiga qiziqishini kuchaytirishga qaratilgan yana bir muhim qadam bo'ldi. Kengashda O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligiga teatr san'atini rivojlantirish bo'yicha keng qamrovli dastur ishlab chiqish va tasdiqlash uchun kiritish vazifasi topshirildi.

Dasturda tarixiy va zamonaviy mavzular bo'yicha eng yaxshi pyesa uchun ijodiy buyurtma berish, dramaturglarga 50 million so'mdan qalam haqi to'lash, ijodiy va yordamchi xodimlarning rivojlangan davlatlar teatrlarida mahorat oshirishini yo'lga qo'yish hamda yosh rejissyorlarni qo'llab-quvvatlash uchun Mannon Uyg'ur nomidagi mukofoti ta'sis etish nazarda tutiladi.

Shu o'rinda aytish joizki, so'nggi yillarda Qoraqalpog'iston teatri jamoalariga ham e'tibor kuchaydi. Masalan, Berdaq nomidagi Qoraqalpog'iston davlat musiqali teatri "akademik" maqomi berildi, Qoraqalpog'iston davlat yosh tomoshabinlar teatri hamda Qoraqalpog'iston davlat qog'irchoq teatri jamoalari

Teatr, avvalambor, ko'pchilik san'at namoyandalarning hamkorlikdagi ijod mahsullari namoyon bo'ladigan maskan. Birgina sahna asarining yuzaga kelishida dramaturgdan tortib dirijyorgacha, grimchidan tortib chiroq ustasigacha bo'lgan bir necha o'nlab ijodkorlarning mehnati bor. Mavjud shart-sharoit, imtiyoz va imkoniyatlardan foydalangan holda yangi davr poydevorini qurish orzusida astoydil itilgan fidoyi zamondoshlarimiz siymolari aks etgan original sahna asarlari yaratish maqsadida birlashish, hamkorlikda ijod qilish — milliy teatr san'atimizning yanada rivojlanishi va taraqqiy etishining eng muhim, asosiy omillaridan biridir.

har tomonlama qulay, zamonaviy jihozlangan, ko'rkam va bejirim yangi binolarga ko'chib o'tdi. O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutining Nukus filialida tahsil olgan professional yoshlar har yili teatr jamoalariga kelib qo'shilmog'da. Albatta, bular juda ijobiy jarayon.

Hozirgi paytda mavjud imkoniyatlardan foydalangan holda mamlakatimizdagi professional davlat teatrlarida har yili turli janr va mavzularda 150 ga yaqin yangi sahna asarlari yaratiladi, har bir teatr bir mavsum mobaynida kamida to'rttadan yangi spektakl tayyorlaydi. Bundan tashqari, mamlakatimizning turli joylarda istiqomat qilayotgan aholi bilan ko'plab badiiy kechalar, ma'naviy-ma'rifiy uchrashuvlar uyushtiriladi. Lekin afsuski, ushbu qizg'in ijodiy jarayon va sahnalarda qo'yilayotgan spektakllarning ko'pchiligi haqida keng jamoatchilik to'liq ma'lumotga ega emas. Shu ma'noda, teatr san'ati olamida ro'y berayotgan jarayonlar, yangilik va o'zgarishlarni keng tomoshabinlar ommasiga yetkazish va ularning e'tiborini jalb qilishda, ommaviy-axborot vositalarining o'rni va ahamiyati beqiyos ekanligini e'tirof etish lozim.

Omonulla RIZAYEV,
Qoraqalpog'iston Respublikasi san'at arbobi, professor.

E'tirof

«O'ZBEKISTONGA MAFTUN BO'LDIM»

Italiyalik mashhur soprano Tereza Sparako O'zbekiston xalq artisti Botir Zokirovning «Maftun bo'ldim» qo'shig'ini yangi talqinda ijro qildi.

O'zbekiston diplomatik missiyasi tashabbusi bilan italiyalik soprano Tereza Sparako tomonidan kuylangan «Maftun bo'ldim» qo'shig'i Neapol hududiy milliy telekanali — «Partenope TV» da efriga uzatildi.

Qo'shiq ijro etilgan sahnadagi yirik ekranda O'zbekistonning sayyohlik salohiyati, qadimiy obidalari va shaharlariga bag'ishlangan videolavha namoyish etildi.

«Ushbu qo'shiqni kuylashimga O'zbekistonga va mamlakatimiz san'atiga bo'lgan yuqori qiziqishim sabab bo'ldi. Bundan avval ham O'zbekistonning Italiyadagi elchixonasi tomonidan uyushtirilgan bir qator madaniy tadbirlarda o'zbek kuy-qo'shiqlarini ijro etganman», dedi Tereza Sparako.

Ma'lumot uchun aytish joiz, Tereza Sparako 1968-yil Kazerta shahrida tug'ilgan. U professional qo'shiqchilar Mariya Raneri, soprano Gloriya Vardasi, tenor Franchesko Malapenadan ta'lim olgan. Ijodiy faoliyati davomida Neapoldagi San-Karlo teatri va Kazertadagi Qirolik saroyida konsert bergan. Shuningdek, Tereza Sparako «Caruso», «Amici della Musica» singari mahalliy va xalqaro tanlovlar sovrindori hisoblanadi.

«Dunyo» AA.
Rim

REKLAMA

MIRZO ULUG'BEK NOMIDAGI O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI QUYIDAGI LAVOZIMLARGA TANLOV E'LON QILADI:

AMALIY MATEMATIKA VA INTELLEKTUAL TEXNOLOGIYALAR FAKULTETI

Algoritm va dasturlash texnologiyalari kafedrasini:

dotsent — 2 ta;
katta o'qituvchi — 1 ta.

Amaliy matematika va kompyuter tahlili kafedrasini:

katta o'qituvchi — 1 ta.

Axborot xavfsizligi kafedrasini:

katta o'qituvchi — 2 ta.

Hisoblash matematikasi va axborot tizimlari kafedrasini:

dotsent — 1 ta.

Sun'iy intellekt kafedrasini:

dotsent — 1 ta.

BIOLOGIYA FAKULTETI

Biofizika kafedrasini:

katta o'qituvchi — 1 ta.

Botanika va o'simliklar fiziologiyasi kafedrasini:

katta o'qituvchi — 1 ta.

Genetika kafedrasini:

katta o'qituvchi — 1 ta.

Mikrobiologiya va biotexnologiya kafedrasini:

stajjer-o'qituvchi — 1 ta.

Tuproqshunoslik kafedrasini:

professor — 2 ta;
katta o'qituvchi — 2 ta.

Zoologiya kafedrasini:

o'qituvchi — 1 ta.

Odamlar va hayvonlar fiziologiyasi kafedrasini:

stajjer-o'qituvchi — 1 ta.

EKOLOGIYA FAKULTETI

Ekologik monitoring kafedrasini:

dotsent — 2 ta;
o'qituvchi — 1 ta.

Ekologiya kafedrasini:

katta o'qituvchi — 1 ta.

FIZIKA FAKULTETI

Fotonika kafedrasini:

katta o'qituvchi — 1 ta.

Umumiy fizika kafedrasini:

katta o'qituvchi — 1 ta.

Yadro fizikasi kafedrasini:

dotsent — 1 ta;
o'qituvchi — 1 ta.

GEOGRAFIYA VA GEOAXBOROT TIZIMLARI FAKULTETI

Geodeziya va geoaxborot kafedrasini:

dotsent — 1 ta;
katta o'qituvchi — 1 ta;
o'qituvchi — 2 ta.

Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya kafedrasini:

professor — 1 ta.

Kartografiya kafedrasini:

katta o'qituvchi — 1 ta;
o'qituvchi — 1 ta.

Tabiiy geografiya kafedrasini:

stajjer-o'qituvchi — 1 ta.

GEOLOGIYA VA MUHANDISLIK GEOLOGIYASI FAKULTETI

Geofizikaviy tadqiqot usullari kafedrasini:

dotsent — 1 ta.

Geokimyo va mineralogiya kafedrasini:

dotsent — 1 ta;
katta o'qituvchi — 2 ta.

Geologiya kafedrasini:

katta o'qituvchi — 1 ta;
o'qituvchi — 4 ta;
stajjer-o'qituvchi — 1 ta.

Gidrogeologiya kafedrasini:

katta o'qituvchi — 1 ta.

GIDROMETEOROLOGIYA FAKULTETI

Gidrometeorologiya va atrof-muhit monitoringi kafedrasini:

katta o'qituvchi — 1 ta.

Quruqlik gidrologiyasi kafedrasini:

katta o'qituvchi — 1 ta.

IJTIMOYIY FANLAR FAKULTETI

Etika va estetika kafedrasini:

professor — 1 ta;
stajjer-o'qituvchi — 1 ta.

Falsafa va mantiq kafedrasini:

professor — 1 ta;
dotsent — 1 ta;
katta o'qituvchi — 1 ta;
o'qituvchi — 1 ta.

Huquqiy fanlar kafedrasini:

dotsent — 1 ta;
katta o'qituvchi — 1 ta;
o'qituvchi — 1 ta;
stajjer-o'qituvchi — 1 ta.

Ijtimoiy ish kafedrasini:

o'qituvchi — 2 ta;
stajjer-o'qituvchi — 1 ta.

Ijtimoiy psixologiya kafedrasini:

katta o'qituvchi — 1 ta;
stajjer-o'qituvchi — 2 ta.

Pedagogika va umumiy psixologiya kafedrasini:

dotsent — 1 ta;
katta o'qituvchi — 5 ta;
o'qituvchi — 1 ta;
stajjer-o'qituvchi — 2 ta.

Siyosatshunoslik kafedrasini:

dotsent — 1 ta;
katta o'qituvchi — 1 ta.

Sotsiologiya kafedrasini:

katta o'qituvchi — 1 ta.

Umumiy psixologiya kafedrasini:

dotsent — 1 ta;
katta o'qituvchi — 1 ta;
o'qituvchi — 1 ta;
stajjer-o'qituvchi — 1 ta.

IQTISODIYOT FAKULTETI

Ekonomika va iqtisodiy modellashtirish kafedrasini:

katta o'qituvchi — 1 ta.

Iqtisodiyot nazariyasi kafedrasini:

dotsent — 2 ta;
o'qituvchi — 1 ta.

Makroiqtisodiyot kafedrasini:

katta o'qituvchi — 1 ta;
stajjer-o'qituvchi — 2 ta.

Mintaqaviy iqtisodiyot va menejment kafedrasini:

dotsent — 1 ta.

Moliya va kredit kafedrasini:

dotsent — 1 ta;
katta o'qituvchi — 1 ta;
stajjer-o'qituvchi — 1 ta.

JURNALISTIKA FAKULTETI

Audiovizual va internet jurnalistika kafedrasini:

katta o'qituvchi — 1 ta.

KIMYO FAKULTETI

Analiitik kimyo kafedrasini:

dotsent — 1 ta;
o'qituvchi — 1 ta.

Organik kimyo kafedrasini:

katta o'qituvchi — 2 ta.

Polimerlar kimyosi kafedrasini:

o'qituvchi — 1 ta.

MATEMATIKA FAKULTETI

Differensial tenglamalar va matematik fizika kafedrasini:

katta o'qituvchi — 1 ta;
o'qituvchi — 1 ta.

Geometriya va topologiya kafedrasini:

katta o'qituvchi — 1 ta.

Matematik analiz kafedrasini:

dotsent — 1 ta;
o'qituvchi — 1 ta.

Mexanika va matematik modellashtirish kafedrasini:

o'qituvchi — 1 ta.

O'ZBEK FILOLOGIYASI FAKULTETI

Fakultetlararo rus tili kafedrasini:

katta o'qituvchi — 1 ta.

Kompyuter lingvistikasi va amaliy tilshunoslik kafedrasini:

katta o'qituvchi — 1 ta;
o'qituvchi — 1 ta;
stajjer-o'qituvchi — 2 ta.

O'zbek adabiyotshunosligi kafedrasini:

katta o'qituvchi — 2 ta;
o'qituvchi — 1 ta.

O'zbek tilshunosligi kafedrasini:

stajjer-o'qituvchi — 1 ta.

TAEKVONDO VA SPORT FAOLIYATI FAKULTETI

Sport menejmenti kafedrasini:

professor — 1 ta;
dotsent — 2 ta;
katta o'qituvchi — 5 ta;
stajjer-o'qituvchi — 1 ta.

Taekvondo va sport faoliyati kafedrasini:

katta o'qituvchi — 1 ta;
stajjer-o'qituvchi — 1 ta.

TARIX FAKULTETI

Arxeologiya kafedrasini:

o'qituvchi — 1 ta;
stajjer-o'qituvchi — 1 ta.

Manbashunoslik va arxivshunoslik kafedrasini:

dotsent — 1 ta;
o'qituvchi — 1 ta.

O'zbekiston tarixi kafedrasini:

katta o'qituvchi — 1 ta.

O'zbekistonning eng yangi tarixi kafedrasini:

professor — 1 ta;
stajjer-o'qituvchi — 1 ta.

XORIJIIY FILOLOGIYA FAKULTETI

Amaliy ingliz tili va adabiyotshunoslik kafedrasini:

o'qituvchi — 1 ta.

Fakultetlararo ingliz tili kafedrasini:

katta o'qituvchi — 2 ta;
o'qituvchi — 2 ta.

Fransuz filologiyasi kafedrasini:

professor — 1 ta;
katta o'qituvchi — 2 ta;
o'qituvchi — 1 ta.

Ingliz tilshunosligi kafedrasini:

katta o'qituvchi — 1 ta.

Tarjima nazariyasi va qiyosiy tilshunoslik kafedrasini:

professor — 1 ta;
stajjer-o'qituvchi — 1 ta.

Nemis filologiyasi kafedrasini:

o'qituvchi — 2 ta;
stajjer-o'qituvchi — 1 ta.

Xorijiy til va adabiyot kafedrasini:

katta o'qituvchi — 1 ta;
o'qituvchi — 1 ta;
stajjer-o'qituvchi — 4 ta.

Tanlovda qatnashadigan nomzodlar quyidagi hujjatlarni taqdim etishi lozim:

universitet rektori nomiga ariza;
xodimlarni hisobga olish bo'yicha shaxsiy varaq (ma'lumotnoma);
oliy ma'lumoti to'g'risidagi diplomlar nusxasi;
ilmiy unvoni darajasi to'g'risidagi diplomlar nusxasi;
ilmiy ishlari ro'yxati (so'ngi 3 yil);
malaka oshirganligi to'g'risidagi guvohnoma nusxasi;
xorijiy til bilish darajasini tasdiqlovchi sertifikat nusxasi (xorijiy filologiya fakulteti o'qituvchilari uchun).

Hujjatlar e'lon chop etilgan sanadan boshlab 1 oy muddatda qabul qilinadi.

Manzil: 100174, Toshkent shahri, Universitet ko'chasi, 4-uy, O'ZMUNING xodimlar bo'limi. Telefon: 71-246-03-92.

Xalq so'zi Narodnoe slovo

MUASSISLAR:
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Kengashi
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashi

Bosh muharrir O'tkir RAHMAT

2020-yil 25-m